

O'ZBEKISTONDA SUV TANQISLIGI

Jumayev Behzod Yo'ldoshevich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Xalqaro jurnalistika fakulteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston ichki suvlari va ulardan foydalanish, suvdan noto'g'ri foydalanishning salbiy oqibatlari, suv tanqisligi muammosi va uni keltirib chiqaruvchi omillar o'rganilgan, tahlil qilingan va muammoning yechimlari va takliflar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Suv tanqisligi, Orol dengizi, gidroresurslar, yerlarni sug'orish, ekologik vaziyat.*

Аннотация: *В данной статье изучены, проанализированы внутренние воды Узбекистана и их использование, негативные последствия ненадлежащего использования воды, проблема нехватки воды и вызывающие ее факторы, а также даны пути решения и предложения.*

Ключевые слова: *Дефицит воды, Аральское море, гидроресурсы, орошение земель, экологическая ситуация.*

Abstract: *In this article, the internal waters of Uzbekistan and their use, the negative consequences of improper use of water, the problem of water shortage and the factors causing it are studied, analyzed, and solutions and suggestions are given.*

Key words: *Water scarcity, Aral Sea, hydro resources, land irrigation, ecological situation.*

Bugungi kunda suv tanqisligini keltirib chiqarayotgan antropogen omillarga to'xtalib o'tsak. Ular suv resurslariga nooqilona va e'tiborsiz munosabatda bo'lishi, suvni isrof qilishi, haddan ziyod iste'mol qilishda va qolaversa qishloq xo'jaligida suvdan noto'g'ri foydalanishi oqibatida suv tanqisligi muammolari kelib chiqmoqda. Misol o'rnida, dunyoda yiliga 12-17 ming km suv iflostantiriladi va yaroqsiz holga keladi. Arzon energiya manbalaridan foydalanish o'rniga yirik gidroenergetik inshootlar qurish orqali daryo suvlarini suv omborlariga to'plash va isrof etish holatlari kuzatilmoqda. Zero, ko'p maqsadli yirik suv omorlarida yig'ilgan suvning bug'lanishi evaziga yo'qotilayotgan suv miqdorining o'zi iste'mol qilinayotgan suvning 5%ga tengdir. Issiq zaharli gazlarning atmosferaga chiqib yoyilishi oqibatida kuchayib borayotgan global iqlim isishi suvning bug'lanish darajasini va iste'mol ko'lamini yanada oshirib yuborishi aniq.

Bugungi kunda suv tanqisligini deyarli har qadamda va har soniyada his etish mumkin bo'lib qoldi. 1990-yillarda 1 milliard aholi suvga bo'lgan minimal ehtiyojlarini

qondira olmadi. Bu dunyo aholisining 17% demakdir. Hozirda esa 43 ta mamlakatda yashovchi 884 mln aholi ana shunday vaziyatda yashab kelmoqda. 2030-yilga borib jahondagi 47% aholi “mutloq” suv tanqisligi xavfi ostida qoladi, 67% aholigina minimal ehtiyojlarini qondira oladi. Bugungi kunda yer yuzida 2,6 mlrd aholi suv tanqisligi bois birlamchi sanitar sharoitlarga ega emas. Har yili dunyoda jon taslim qilayotgan 3 mln aholining 80% o’limi sabablari ular iste’mol qilayotgan suv sifati bilan bog’liq hisoblanadi. Toza ichimlik suvi va munosib sanitar sharoitlarining yo’qligi tufayli har yili besh yoshgacha bo’lgan 5 mln bola nobud bo’lmoqda. Suv bilan bog’liq kasalliklar va baxtsiz hodisalar tufayli bir yilda jami 6-7 mln kishi dunyodan ko’z yummoqda. Qayd etish joizki, hozirgi paytda suvga bo’lgan talab va ehtiyoj har qachongidan tobora ortib bormoqda. Natijada butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilyapti. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o’tgani yo’q. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko’ra, 2050-yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Boshqa tomondan esa, aholining o’sishi hisobiga, O’zbekistonda 2030-yilga borib, suvga bo’lgan talab 7 mlrd kub metrga yetishi, 2050-yilga borib esa, bu ko’rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin.

Qishloq xo’jaligi va sanoatdagi suv tanqisligi 2000-yilda 230 mlrd metr kub deb topilgan bo’lsa, bu ko’rsatkich 2030-yilga borib 1,3-2 trln.m³ ni tashkil etishi aytilmoqda. Suv zahiralarning katta miqdori inson ehtiyojlari uchun sarflanishi bizni qurshab turgan boshqa organik (o’simlik va hayvonot) dunyo uchun suv tanqisligini va oxir-oqibat ularning halokatini keltirib chiqarmoqda. Afsuski, suv uchun raqobat kurashida ular insoniyat oldida mutlaqo ojizdirlar. Shunday ekan, Ona tabiatni obihayotdan bebahra etmay, uning barcha xilqatlarini muhofaza etish, antropogen tahdidlardan himoyalash inson zotining, kurrai zamin bag’rida yashayotgan har bir fuqaroning ahloqiy burchi hisoblanadi. O’zbekiston 4,2 mln gektar yerni sug’orish va sho’rini yuvish uchun daryolardan yiliga 53-55 km³ suv olinmoqda. Qishloq xo’jalik uchun olinayotgan 53-55 km³ suvning 80% yerlarni sug’orishga sarflansa, qolgan 20% tuproq sho’rini yuvishga sarf bo’lmoqda. O’zbekiston daryolarining energetik ahamiyati ham katta bo’lib, umumiy potensial gidroenergiya resursi 8,76 mln kv ga teng. Shuning uchun 0,6 mln kv qismi Surxondaryo, 1,8 mln kv qismi (Chirchiq daryosining umumiy potensial gidroenergo resursi 2,30 mln kv bo’lib, qolgan 0,50 mln kv Qirg’iziston hududlaridir) 0,7 mln kv qismi Zarafshon (Zarafshonning qolgan 2 mln kv Tojikiston hududida) 0,4 mln kv qismi Sirdaryo (qolgan 4,5 mln kv qismi boshqa o’lkalar hududida) qolgani o’lkamiz boshqa daryolari zimmasiga to’g’ri keladi. Shularni inobatga olib, so’nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish tubdan isloh qilinmoqda. Asosiy masala — suvdan oqilona va samarali foydalanish, sug’oriladigan yerlarning

meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan. Binobarin, Prezidentimizning saylovoldi dasturida ham suv resurslarini tejashga alohida e'tibor berilib, 2030-yilga qadar respublikamizdagi sug'orma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini to'liq suv tejaydigan texnologiyalarga o'tkazish, sohaga bozor mexanizmlarini keng tatbiq etish, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etgan fermer va dehqonlar uchun rag'batlantirish mexanizmlarini yanada ko'paytirish choralari ko'rilishi belgilandi. Jumladan, 2017-2023-yillarda jami 1,2 mln gektar maydonda, ya'ni qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining qariyb 31% da suv tejovchi texnologiyalar joriy etildi.

Bu tomchilatib, yomg'irlatib, diskret sug'orish, egiluvchan quvur, plyonka to'shab sug'orish kabi texnologiyalarni o'z ichiga oladi, ushbu yillarda 630 ming gektar yer lazerli tekislandi. Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv resurslaridan yanada samarali foydalanish maqsadida aniq chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda. Chunonchi, 2019-yildan mamlakatimizda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim — subsidiya ajratish mexanizmi yo'lga qo'yildi. 2022-yildan boshlab esa ushbu tizim raqamlashtirildi. Albatta, bu borada amalga oshirilgan vazifalar kelgusida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilgan maydonlar ko'lamini sezilarli darajada oshishiga imkon beradi. Ta'kidlash kerak, bugun barcha jabhada bo'lgani kabi suv xo'jaligi sohasiga ham raqamli texnologiyalarni joriy qilishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda 5479 ta "Aqlli suv" nasos stansiyalariga 1446 ta onlayn nazorat qurilmalari, shuningdek, meliorativ kuzatuv quduqlariga minerallashganlik darajasini onlayn nazorat qiluvchi 5055 ta "Dayver" qurilmalari o'rnatildi, 45 ta yirik suv xo'jaligi ob'ektlarining boshqaruv jarayoni avtomatlashtirildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 3 mlrd kub metr suv iqtisod qilinib, qo'shimcha 400 ming gektar maydonda suv ta'minoti yaxshilandi. Suvni boshqarish jarayonini avtomatlashtirish orqali yo'qotishlar 10 foizgacha kamaytirildi. Bundan tashqari, bugungi kunda respublikamizda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarining uskunalari va butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 50 dan ortiqni tashkil etib, mazkur texnologiyalarni mahalliyashtirish 80% ga yetkazildi. Aytish kerak, ushbu texnologiyalar qismlarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hisobiga mahsulot tannarxi arzonlashdi. Shu bilan birga, uskunalarini qo'shni respublikalarga eksport qilish imkoniyati yaratildi. Yana bir muhim e'tirof — O'zbekiston suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi, MDH davlatlari orasida ikkinchi, Osiyoda to'rtinchi va dunyoda 13-o'rinda ekani, shak-shubhasiz, quvonarli hodisa hisoblanadi.

Buni tizim faoliyatini yanada isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning samarali ijrosi natijasi, deyish mumkin. Hozirgi vaqtda mazkur yo'nalishdagi islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida Suv xo'jaligi vazirligi oldiga muhim vazifalar qo'yildi. 2030-yilgacha sug'oriladigan ekin maydonlarini to'liq suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olish ana shular jumlasidandir. Aytish joiz, mamlakatimiz iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga asoslangan bo'lib, hududimiz aholisining katta qismi shu bilan band hisoblanadi. Demak, qishloq xo'jaligida suv iste'molini bir foizga kamaytirish millionlab tonna suvni tejab qolish va uni aholi ehtiyojlariga yo'naltirish imkonini yaratadi. Taklifim O'zbekistonda suv xo'jaligi tashkilotlari xodimlarining o'rtacha oylik ish haqi mamlakatdagi o'rtacha oyliklarga nisbatan sezilari miqdorda past hisoblanadi. Bu esa suv ishchisi kasbining ijtimoiy mavqeyi pasaytiradi hamda yuqori malakali mutaxassislarni ushlab turishga to'sqinlik qiladi. Iste'dodli yoshlarda ushbu sohada o'qish uchun deyarli hech qanday rag'bat mavjud emas. Ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish tizimi mavjud emasligi, moliyalashtirish yo'qligi sababli mavjud yaxshi kadrlar ham boshqa sohalarda faoliyat olib borishni afzal ko'rishadi. Oqibatda sohaga yangi innovatsiyalarni joriy qilish darajasi sekin kechmoqda. Shu sababli suv xo'jaligi tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning oylik maoshini ko'tarish, va ushbu sohada o'qiyotgan yoshlar uchun rag'bat joriy qilish zarur dip o'ylayman. Va yoshlar uchun chet el tajribalarini o'rganishi va malaka oshirishi uchun amaliy yordam berish evaziga chet el tajribalarini o'rganib o'zimizga yangi texnologiyali innovatsiyalarni olib kirish orqali suv istemolni yaxshilash ko'zda tutiladi.

Muxtasar aytganda, suv tanqisligi — global muammo. Bunday sharoitda dunyoning ko'plab mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham suv resurslaridan oqilona foydalanishga oid muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, suvni tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat suv sarfini kamaytirish imkonini beradi, balki yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim elementiga aylanadi. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonning barqaror rivojlanishini kafolatlaydi. Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish ortishi, demografik o'sish va o'rtacha harorat oshishi hisobiga bug'lanish kuchayishi sababli Markaziy Osiyo mamlakatlarida yoz oylariga kelib suv manbalariga bo'lgan talab ortib borishiga olib keladi. O'z navbatida, iqlim o'zgarishi va suv resurslaridan irratsional foydalanish oqibatida mintaqadagi asosiy suv manbalari bo'lgan muzliklar erishi tezlashgan. Suv tanqisligi o'tkir va yaqin kelajakda hayot-mamot darajasiga ko'tarilishi ehtimoli yuqori bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari umumiy ekotizimni saqlab qolish va ehtimoliy iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirish uchun bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirishi hamda o'z strategiyalarini qayta ko'rib chiqishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акромов З.М., Рафиков А.А. Прошлое, настоящее и будущее Арсальского моря. Т., „„Мехнат““, 1990, 142с.
2. G'ulomov P.N Inson va tabiat. Т. „„O,qituvchi““, 1990, 98 b.
3. Федченко Б.А Памир и Шугнан. //Известия РГО, т 38. -СПб., 1902.
4. Abdullayev, I.,& Xolmirzayev, J. (2020). JIZZAX SUV OMBORI VA UNDAN OQILONA FOYDALANISHNING GEOGRAFIK JIXATLARI
5. <https://uzsuv.uz/ru/posts/844>
6. <https://daryo.uz/2022/04/15/ozbekistonda-2050-yilga-borib-suv-tanqisligi-beshbarobarga-oshishi-malum-qilindi>
7. <https://staff.tiame.uz/storage/users/538/books/0RJrQ3vRD3kUqmZxQjhYHPBLke8N991r3vYc3dNV.pdf>

